

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI, XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB- QUVVATLASHGA QARATILGAN IMKONIYATLAR ESHIGI

Xusanova Shohida Alibek qizi

Yengil sanoat texnologiya va jihozlari kafedrasi dotsenti, Farg'ona davlat texnika universiteti, Farg'ona, O‘zbekiston

E-mail: shohida04.90@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar va imkoniyatlar tahlil qilingan. Xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi faol ishtirokini kengaytirish, gender tenglikni ta‘minlash va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan dasturlar mazmuni yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish, ta‘lim olish imkoniyatlari va huquqiy kafolatlar kabi muhim yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqolada xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ularni qo‘llab-quvvatlashning istiqbolli yo‘nalishlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Islohot, imkoniyat, tahlil, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, gender, huquq, dastur, ta‘lim, jamiyat, taraqqiyot, istiqbolli yo‘nalish.

Kirish

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma‘lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar hamda **xotin-qizlarning ma‘naviy yetuk**, ta‘lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e‘tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma‘noda, O‘zbekistonda **xotin-qizlarning** masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalaridagi jarayonlarda xotin-qizlarning ishtiroki va faolligi tobora ortib bormoqda. Buning zamirida xotin-qizlarga yaratilayotgan va berilayotgan imkoniyatlarni ochib berayotgan eshiklardir

Tadqiqot uslubiyoti. Bu yo‘lda amalga oshirilayotgan samarali ishlar o‘z salohiyatlarini to‘laqonli yuzaga chiqarishi uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar, umuman, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar natijasidir.

Qolaversa, jamiyatni muhim tarkibi xisoblangan xotin-qizlarning ma'naviy yetuk, tafakkuri keng, iqtisodiy, huquqiy jihatdan bilimdon va faol bo'lishi kelajak avlodni tarbiyalashda ham ijobiy natijalar beradi.

Oxirgi yillarda yurtimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlash, turli tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish, salomatligini mustahkamlash, umuman, xotin-qizlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz, hukumatimiz tomonidan ana shu yo'nalishga oid 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining uzoq muddatli strategik rejalari doirasida qabul qilingan “O'zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Ushbu strategiyada aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni ta'minlash – strategiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.


Ayollar faoliyatining asosiy yo'nalishlari

O'zbekistonda ayollar ko'proq barqaror ish o'rinlari va qulay sharoitlarni taklif qiladigan davlat sektorida ishlaydi.

Ayollar bandligining tarmoq tuzilmasi shu bilan xarakterlanadiki, ular asosan ish haqi past va ish vaqti qisqaroq sohalarda ishlaydi.

Bular ta'lim, sog'liqni saqlash kabi tarmoqlar va umuman, ijtimoiy soha. Erkaklar va ayollarning ish haqi o'rtasidagi tafovut sababi ham aynan mana shu bilan bog'liq. [1]

Research Science and Innovation House



Tadqiqot natijalari. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash siyosati

O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri – xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni tadbirkorlikka jalb etish va ijtimoiy faolligini oshirishdir. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilangan:

- Xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash;
- Tadbirkor ayollar uchun imtiyozli kreditlar va moliyaviy yordam dasturlarini kengaytirish;
- Ta'lim va kasb-hunar o'rganishga keng imkoniyatlar yaratish;
- Ayollar bandligini ta'minlash va mehnat huquqlarini himoya qilish;
- Ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirish.
- Ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlari

Strategiya doirasida xotin-qizlarning ta'lim olishi va kasb-hunar o'rganishi uchun alohida dasturlar ishlab chiqilgan. Xususan, qishloq hududlarida yashovchi ayollarning axborot texnologiyalari va tadbirkorlik sohasida malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish

Xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va grantlar ajratilmoqda. Bu esa ayollar orasida o'z biznesini boshlashga qiziqishni kuchaytirmoqda.

Gender tenglik va huquqiy kafolatlar



“2030” strategiyasi asosida gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan qonunchilik bazasi mustahkamlanmoqda. Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash va zo’ravonlikka qarshi himoyasini kuchaytirish bo’yicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda.

2022-2024-yillar uchun “Biznes ayollar” dasturi qabul qilinishi belgilandi. Uning ijrosiga jami 8 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etiladi, imtiyozli kreditlar beriladi.

Prezidentimiz bu borada obro‘-e’tiborli, bilimli xotin-qizlardan iborat “Oqila ayollar” harakatini tashkil qilish taklifini bildirdi.

– Bu harakat “mahallaning vijdoni”ga aylanishi kerak. Chunki ma’rifatli jamiyatni ma’rifatli onalarsiz qurib bo‘lmaydi, – deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Ko‘pchilik, ayol kishi nima sababdan ishlashi kerak, nimaga ayollar raxbar bo‘ladi buning nimasi yaxshi, uning vazifasi uy ro‘zg‘or bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishi kerak degan fikrlarni bildiradi. Bunday savolga javob, xotin-qizlarimiz ijtimoiy masalalarga ko‘proq yurakdan his qilib yondashadi, dilidan o‘tkazib qarorlar qabul qiladilar. Ijtimoiy masalalar esa, bu — xalqning dardi, xalqning muammosi, shu kecha-kunduzda uning boshidan o‘tayotgan muammolar bilan uzviy bog‘liqdir. Ayol u oila bekasi, bolalar tarbiyachisi, ularning sog‘lig‘i uchun qayg‘uradigan shifokordir. Siyosiy hayotda faol bo‘lgan xotin-qizlarimiz aynan mana shunday xislatlari tufayli qonunlarning yana-da hayotiy bo‘lishi uchun kurashadilar, ularda aniq masalalar, muammolarning yechimlarini anglab tushinib, xis qilib jon kuydiradilar.

O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasiga juda katta e’tibor qaratilyapti. Ularning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari Konstitutsiyamiz, qonunlarimizda mustahkamlab qo‘yilgan.

Quvonarlisi, bugungi kunda yaratilayotgan va berilayotgan imkoniyatlar negizida zamonaviy fikrlaydigan ayollarimizdan ota-onalar, ko‘payib boryapti. O‘z navbatida, xotin-qizlarning ta’lim olishi, kasbli bo‘lishi uchun qog‘ozda emas, real hayotda katta qulayliklar, yengilliklar yaratilmoqda. Bugungi kunda ayrim sohalarda uchratishimiz mumkin gender tengligini, buning samarasi olib borilayotgan erkin demokratik tamoyillarni tizimli ishlayotganligi fikrimizga misol bo‘la oladi.

Keyingi yillarda yurtimizda ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarning ijobiy natijalarini jamiyat boshqaruvida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan ko‘p sonlar misolida ko‘rishimiz mumkin.



Davlat boshqaruvining turli sohalarida faoliyat olib borayotgan rahbarlik salohiyati va qobiliyatiga ega hamda korxonalar, tashkilot, jamoani boshqarayotgan, ortidan ko‘plab opa-singillarimizni ergashtira oladigan, lider ayollarimizdan juda ko‘pini tashkil etmoqda.

Jamiyatimizning eng og‘riqli muammolaridan biri bo‘lgan ishsizlik masalasini ijobiy hal etish, ayol va qizlarning bandligi ta‘minlashda, tadbirkorlik yo‘lida ularga berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozli kredit olib yoki taqdim etilgan subsidiyalardan foydalanish borasida xar bir viloyatlarda sezilarli darajada sezilmoqda.

Bu borada Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashining 2021-yil 27-apreldagi 2-sonli bayonnomasida “Yil ayoli” milliy tanlovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi senati kengashining qarori bilan, “Yil ayoli” va “Gender tenglik faoli” milliy tanlovi, “Hududning 100 nafar ixtirochi ayoli”, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti tanlovlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun 6 xil nomdagi davlat stipendiyalari joriy etilgan. Jumladan:

1. Beruniy nomidagi;
2. Ibn Sino nomidagi;
3. Navoiy nomidagi;
4. Ulug‘bek nomidagi;
5. Imom al-Buxoriy nomidagi;
6. Islom Karimov nomidagi.

Shuncha imkoniyat va e‘tibor ayolning qalbiga yorug‘lik kirita oldi. Farzand, millat tarbiyachisi bo‘lgan shuncha ayol qalbida minnatdorchilik, davlatga ishonch, ertangi kunga umid tuyg‘ulari yanada mustahkamlandi.

Jamiyatimiz ayollari tabiatan kurashuvchandir, oilasi, yaqinlari uchun har qanday mashaqqatu sinovlardan o‘tishga qodir zotdir. Shunday ekan ayolning ushbu fazilatini suiiste‘mol qilmaslik lozim. Aslida hamisha himoyaga, asrab-avaylashga muhtoj ayolni kamsitish, zo‘ravonliklardan asrash ham muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bois xotin-qizlarimizni turli tazyiq va zo‘ravonliklardan asrash, ana shunday ko‘ngilsiz holatlarga tushib qolishining oldini olish maqsadida himoya orderlarining joriy etilgani ham ijobiy natijalar bermoqda.

Xulosa

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunlar, shuningdek, qator farmon va qarorlar ijrosi doirasida olib borilayotgan ishlar jamiyatda xotin-qizlarining nufuzini oshirish, ularning muammolarini bartaraf etish, o‘z hayotlaridan rozi bo‘lib yashashini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatda xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ushbu islohotlar xotin-qizlarning huquqlarini ta‘minlash, jamiyatda ularning mavqeini mustahkamlash va mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va gender tenglikni ta‘minlash to‘g‘risida”gi qonuni.
3. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.
4. O‘zbekiston xotin-qizlarining iqtisodiy faolligi pastligi, avvalo ularning uy-ro‘zg‘or ishlari va bola parvarishi bilan to‘liq band ekanligi bilan bog‘liq, deyiladi PMTI xabarida.
5. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi: xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar izchil davom ettiriladi": Mazkur maqolada strategiya doirasida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma‘lumot berilgan.
6. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi xotin-qizlarning hayotdan rozi bo‘lib yashashini ta‘minlaydi" Ushbu maqolada strategiyaning xotin-qizlar hayotiga ijobiy ta‘siri haqida so‘z yuritiladi.

Research Science and
Innovation House

